ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ

ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2023-6/2
Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года

Хива-2023

Бош муҳаррир:
Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.
Бош муҳаррир ўринбосари:
Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.

Таҳрир ҳайати:

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.	*Пазилов Абдуваеит, б.ф.д., проф.*
Абдуллаева Муборак Махмусовна, б.ф.д., проф.	*Раззақова Сурайё Раззоқовна, к.ф.ф.д., доц.*
Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович, т.ф.д.,проф.	*Рахимов Рахим Атажанович, т.ф.д., проф.*
Агзамова Гулчехра Азизовна, т.ф.д.,проф.	*Рахимов Матназар Шомуротович, б.ф.д., проф.*
Аимбетов Нагмет Каллиевич, и.ф.д., акад.	*Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.*
Аметов Якуб Идрисович, д.б.н., проф.	*Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.*
Бабаджанов Хушнут, ф.ф.н., проф.	*Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.*
Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.	*Сапарбаева Гуландам Машариповна, ф.ф.ф.д.*
Буриев Хасан Чутбаевич, б.ф.д., проф.	*Сапаров Каландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.*
Ганджаева Лола Атаназаровна, б.ф.д., к.и.х.	*Сафаров Алишер Каримджанович, б.ф.д., доц.*
Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.	*Сирожов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.*
Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.	*Сотипов Гойипназар, қ/х.ф.д., проф.*
Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.	*Тожибаев Комилжон Шаробитдинович, б.ф.д., академик*
Исмаилов Исҳақжон Отабаевич, ф.ф.н., доц.	*Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.*
Жуманиёзов Зохид Отабоевич, ф.ф.н., доц.	*Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.*
Жуманов Мурат Арепбаевич, д.б.н., проф.	*Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.*
Кадирова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.	*Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.*
Каримов Улуғбек Темирбаевич, DSc	*Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.*
Курбанова Саида Бекчановна, ф.ф.н., доц.	*Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., доц.*
Қутлиев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д.	*Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.*
Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.	*Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.*
Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.	*Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.*
Махмудов Рауфжон Баходирович, ф.ф.д., к.и.х.	*Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.*
Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.	*Худайберганова Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д.*
Мирзаева Гулнара Саидарифовна, б.ф.д.	

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№6/2 (101), Хоразм Маъмун академияси, 2023 й. – 268 б. – Босма нашрнинг электрон варианти - http://mamun.uz/uz/page/56

ISSN 2091-573 X
Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси

© Хоразм Маъмун академияси ноширлик бўлими, 2023

МУНДАРИЖА
ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Abitkariev A.M. Respublika iqtisodiyoti intellektual salohiyati (RIIS) namoyon bo'lishining samaradorlik mezoni 5
Arzimatov B.Z., Maxmudov Sh.A. Iqtisodiyot va biznes modeli sharoitida korxonaning innovatsion salohiyatini oshirish strategiyasi 8
Boltaeva M.Sh. Specific directions of marketing research in the activities of non-profit enterprises 10
Boyjigitov S.K. Korxonada marketing xizmati samaradorligini baholashda ball usulining ahamiyati 15
Djumanova A.B. Analysis of reserves for the efficient use of material, labor and financial resources of segments of the railway enterprise 19
Dilmonov K.B. Analysis of characteristics and main indicators of organization of labor in Bukhara region 21
Ibragimov Q.T. Surxondaryo viloyat faol qurilish korxonalari faoliyatining korrelatsion-regression tahlili 25
Ismatullayev J.A. Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda investitsion jozibadorlik tahlili 29
Jo'rayeva N.Q. Xizmatlar sohasida risklarni boshqarish samaradorligini baholash 33
Kadirova Sh.Kh. Importance of transportation infrastructure for the development of tourism in the region 38
Khalikova L.N. Prosperity is superior value 40
Mirsodiqov A.T. Qurilish sohasida logistika jarayonlarini modellashtirish asosida soha korxonalari faoliyatini boshqarish 43
Mo'ydinova G.Q. Sanoat korxonalarida xodimlarni boshqarishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish 48
Nazarova L.T. Kimyo sanoati korxonalarining rivojlanishida innovatsion faoliyatning ahamiyati 51
Shao Junling Analysis of the enlightenment and challenges of the SCO Samarkand summit on regional economic development 54
Tashnazarova D.S. Tannarx hisobining zamonaviy tendentsiyalari: ta'rifi, funksiyalar va vazifalari 57
Turayeva G. Analysis of the Uzbekistan commodity exchange and flour trade on it 60
Tuychiyeva O.N. Korxonalarda lean texnologiyalardan foydalanish avzallikalari 63
Umarova N.Kh. External factors affecting the financial security of construction materials industry enterprises 66
Xazratqulov S.S. Hududlarda ko'p funksiyali agroklasterlarni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari 69
Xudayberdiya O.Q. The feasibility and practical importance of the development of agoclusters in the context of the digital economy 72
Абдуллаев А.Ж., Раимова Д.Д. Қорақалпоғистон Республикасида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик ривожланиши динамикаси таҳлили 74
Абдуллаева Б.Ю. К проблемам стратегии развития предпринимательства в сфере туризма 80
Абдуллаева З.И. Содержание и особенности развития гостиничного бизнеса в современных условиях 82
Абдулхалилова С.Н. Корхоналарда инвестициявий жараёнларни ташкил этишга элементларнинг ўзаро алоқадорликдаги структуравий механизми 85
Авезов М. Расширение экспортного потенциала промышленности и аграрного сектора Хорезмского региона 88
Аминова М.С. Озиқ-овқат товарлари B2B бозорини ривожлантиришда рақамли маркетинг стратегияларидан фойдаланишни такомиллаштириш 91
Бекимбетов Д.Р. Особенности стратегического управления сферы услуг в условиях цифровой экономики 97
Валижонов Ш.О. Рақобат мухитида сифатни бошқариш масалалари 102
Джуманова А.Б. Корхонада бюджетлаштириш тизимини ишлаб чиқиш: муаммолар ва жорий этиш йўллари 105
Жуманазаров О.С. Савдо ва молиявий хизматлар соҳаларида шерикчилик алоқалари хусусиятлари 107
Жуманова В.А. Хизматлар соҳасида маркетинг коммуникациясида харидорлар аудиториясини кенгайтиришнинг аҳамияти 113
Жураев Х. Ишбилармонлик муҳитини фаоллаштириш асосида минтақани комплекс ривожлантириш омиллари 116
Закимов А.М. Минтақада қизилмияни етиштириш ва қайта ишлаш бўйича кооперациянинг ташкилий-иқтисодий механизмлари самарадорлигини ошириш 119
Ибадуллев Э.Б. Хоразм вилоятида туристик-рекреацион хизматларни эконометрик моделлаштириш ва прогнозлаш масалалари 123

5. http: / /www.gov.cn/gongbao/content/2001/content_60959.html.
6. Lanting Observation, "Samar Rare Certificate SCO Attraction Passes the Most Achievement Documents in History", Huashang.com News, ttp://news.hsw.cn/2022/0918/.html
7. "Dushanbe Declaration on the 20th Anniversary of the Shanghai Cooperation Organization", official website of the Shanghai Cooperation Organization, http: / /chn. sectsco.org /documents/
8. Zhang Yuyan, Li Zenggang: "The New Political Economy of International Relations", China Social Sciences Press, 2015, p.185.
9. Liu Huaqin: "The Effective Regional Economic Cooperation of the Shanghai Cooperation Organization", Xinhuanet, August 27, 2021, http://home.xinhua－news.com

UO'K 657.47.07

TANNARX HISOBINING ZAMONAVIY TENDENTSIYALARI: TA'RIFI, FUNKSIYALAR VA VAZIFALARI

D.S.Tashnazarova, Toshkent davlat agrar universiteti, "Buxgalteriya hisobi, tahlil va audit kafedrasi dotsenti v.v.b., PhD

Annotatsiya. *Ushbu maqola xarajatlarning ta'riflari va tasniflarini taqdim etish, to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita ishlab chiqarish xarajatlari tushunchalarini, xarajatlarni hisoblash tizimlarini, xarajatlarni hisobga olishning maqsad va vazifalarini tushuntirish orqali biznesni boshqarishda xarajatlar va tannarx hisoblash choralarining ahamiyatini o'rganadi.*

Kalit so'zlar: *xarajatlar, ishlab chiqarish xarajatlari, mahsulot tannarxi, to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita ishlab chiqarish xarajatlari, xarajatlarni hisobga olish*

Аннотация. *Эта статья раскрывает важность показателей затрат и себестоимости в управлении предприятием, предоставляя определения и классификацию расходов, а также разъясняя понятия прямых и косвенных производственных затрат, систем учета себестоимости, а также цели и задачи учета затрат.*

Ключевые слова*: расходы, производственные затраты, себестоимость продукции, прямые и косвенные производственные затраты, учет себестоимости*

Abstract. *This article emphasizes the significance of cost and cost accounting indicators in management, providing definitions and classifications of expenses, explaining the concepts of direct and indirect production costs, cost accounting systems, and outlining the objectives and tasks of cost accounting.*

Key words*: expenses, production costs, production costs, direct and indirect production costs, cost accounting*

Kirish. Xalqaro tajribalarda buxgalteriya hisobi tizimi moliyaviy buxgalteriya hisobi (financial accounting) va boshqaruv buxgalteriya hisobi (management accounting) kabi tarkibiy qismlardan tashkil topgan. Shu nuqtai nazardan bugungi kunda buxgalteriya hisobi fani ham moliyaviy hisob va boshqaruv hisobiga bo'lib o'rganilmoqda. Moliyaviy hisob bu asosan tashqi axborot foydalanuvchilarga moliyaviy hisobot ko'rinishida axborotlarni taqdim qilish bo'lsa, boshqaruv hisobi esa ichki axborot foydalanuvchilar, ya'ni menejerlarga qarorlar qabul qilishlari uchun foydali axborotlarni yetkazib berish quyi tizimiga aytiladi. Boshqaruv hisobining tarkibida tannarx hisobi deb ataladigan alohida o'zining predmeti va obyektiga ega bo'lgan quyi tizim shakllangan. Xo'sh, bu quyi tizim xarajatlar va tannarx tushunchalariga qanday munosabat bildiradi? Xarajatlar va tannarx bir xil tushunchami yoki ular farq qiladimi? Tannarx hisobining asosiy obyektlari nimalardan iborat? Shu kabi savollar xorijiy tajribalar asosida mamlakatimizda endi shakllanib kelayotgan tannarx hisobi uchun o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi tadqiqotlar asosida xulosa qilishimiz mumkinki, alohida o'z predmeti, obyekti nuqtai nazaridan tannarx hisobini alohida fan sifatida o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mamlakatimizda tannarx hisobini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlariga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Tannarx hisobi boshqaruv hisobining tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu bois, uni alohida fan tarmog'i sifatida shakllantirish, uning predmeti va obyektini belgilab olish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi;

2. Tannarxning tarkibiy qismini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish maqsadida uning asosiy kategoriyalari sifatida xom-ashyo va materiallar, mehnat haqi va ustama ishlab chiqarish

xarajatlari e'tirof etilishi kerak. Ularning tarkibiy qismlari ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Mamlakatimizda "Xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarning shakllanishi to'g'risidagi" Nizom qayta ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi;

3. Tannarx hisobida zamonaviy tizimlar, jumladan jarayonli kosting, buyurtmali kosting, abzorpshin kosting, veriaybl kosting, standart kosting, AVS kostinglarni qo'llanilishi bo'yicha uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqishni kengaytirish kerak;

4. Tannarx to'g'risida hisobot tuzish va taqdim etish uchun hisobotning formatini taklif etish kerak. Ushbu hisobot moliyaviy hisobotdagi "Sotilgan tayyor mahsulotlar (ish va xizmatlar) tannarxi" ko'rsatkichini ochiqlashga imkon beradi

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirda xarajatlar hisobi tizim sifatida shakllanib kelmoqda. Tannarx hisobi tizimi deganda tannarx obektiga doir bo'lgan axborotlarni o'lchash, yozuvini amalga oshirish, tahlil va interpretatsiya qilish hamda tannarx hisobotini tuzishda qo'llaniladigan muntazam davr jarayonlar va protseduralar majmuasidan iboratdir. Tannarx hisobiga doir adabiyotlarda tannarx hisobi tizimining quyidagi to'rtta faoliyatlarini keltirib o'tamiz: 1.Tannarxni o'lchash; 2.Tannarxning yozuvini amalga oshirish; 3.Tannarxni tahlil qilish; 4.Tannarx hisoboti.

Tadqiqot metodologiyasi. Tannarx hisobi boshqaruv (menejmentlik) hisobining eng muhim tarkibiy qismi bo'lib, u nafaqat menejmentni axborot bilan ta'minlaydi, balki menejmentlik hisobining boshqa tarkibiy qismlari uchun ham axborot manbai hisoblanadi. Shu bois, tannarxi hisobi boshqaruv (menejmentlik) hisobining fundamentini, ya'ni uning asosini tashkil etadi desak, aynan haqiqat bo'ladi. Soha bo'yicha eng nufuzli tashkilot CIMA instituti Tannarxni hisoblash (Costing), Tannarx hisobi (Cost accounting) hamda Tannarx buxgalteri (Cost Accountancy) tushunchalariga alohida tavsiflar keltirgan:

"Tannarxni hisoblash (Kosting) – bu tannarxni aniqlashda qo'llaniladigan metodlar (techniques and) majmuasi hamda uni hisoblashni amalga oshirish jarayonidir (processes). Ushbu metodlar mahsulotlar va xizmatlar tannarxini aniqlash protsedurasini tartibga soluvchi prinsiplar va qoidalardan iborat bo'ladi. Ushbu metodlar turli mahsulotlar va xizmatlar tannarxini aniqlashda sanoat tarmoqlarining xususiyatlaridan kelib chiqib belgilanadi." [51, 5-6-p]

Boshqa manbalarda ham shu kabi tavsiflar keltirilgan: "Kosting – bu quyidagilarni aniqlashda qo'llaniladigan prinsiplar va qoidalardir: (a) mahsulotlar, misol uchun kimyo mahsulotlari, televizor va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish tannarxi hamda (b) xizmatlar, misol uchun elektr-energiyasi, transport va boshqa hizmatlarni ta'min etish tannarxi".

Bizning amaliyotimizda tannarxni hisoblash "mahsulot (ish va xizmatlar) tannarxi kalkulyatsiyasi", rus tilida «kalkulyatsiya sebestoimosti produksii (rabot, uslug)» deb yuritiladi. "Calculatio" [185] lotincha so'zdan olingan bo'lib schyot, ya'ni jamini chiqarish ma'nosini anglatadi. Yevropa va AQShdagi darsliklarida hamda xalqaro standartlarda mahsulot tannarxini hisoblashda "kalkulyatsiya" atamasidan foydalanilmagan. Tannarx hisobi masalalarni o'rganishda eng ko'p qo'llaniladigan atamalardan biri bu kostingdir. Masalan, boshqaruv hisobida kostingning quyidagi turlaridan foydalanamiz: "costing method, absorption costing, variable (direct) costing, process costing, activity-based costing, actual costing, standard costing, average costing, functional costing, historical costing, constraint based costing, continuous operation costing, contract costing, normal costing, job order costing". Bu tushunchalarning har biri bitta mavzu. Ushbu atamalarni kalkulyatsiya deb tarjima qilsak, uning asl mohiyatini to'liq ifodalab bera olmaydi. Shu sababli, kalkulyatsiya atamasining o'rniga Kosting tushunchasini qabul qilish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Tannarx hisobi (Cost accounting) – bu operatsiyalar, jarayonlar, faoliyatlar yoki mahsulotlar byudjetlari, standart tannarxi va haqiqiy tannarxini o'rnatish hamda yuzaga kelgan chetlanishlar, rentabellik darajasi va fondlardan ijtimoiy foydalanish tahlilidan iboratdir.

Sohaning taniqli olimi Ueldon "Tannarx hisobi – bu menejment tomonidan nazorat va boshqaruvning amalga oshirilishi maqsadida tartibga solingan ma'lumotlar bo'yicha taqdimotni tayyorlash uchun xarajatlarni tasniflash, qayd qilish va mutanosib ravishda taqsimlash asosida mahsulotlar va xizmatlar tannarxini aniqlashdir."

Tannarx hisobi asosan resurslarning, jumladan meteriallar, mehnat va boshqa resurslarning sarflanishi bilan bog‘liq jarayonlarni hisobga olib, uning maqsadi boshqaruvni baholarni belgilash, zaxiralarning optimal miqdorini belgilash, ularning sarflanishi hamda omborlarda saqlanishiga oid qarorlar qabul qilishlari uchun mahsulot tannarxi, jarayon tannarxi, xizmatlar, jumladan kommunal xizmatlar tannarxi, zaxiralar tannarxi va boshqalar to‘g‘risida axborotlar bilan ta’minlash bo‘lib hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan tavsiflar asosida tannarx hisobining muhim xususiyatlarini mujassamlantirgan ta’rifni ishlab chiqamiz: “Tannarx hisobi deganda, rejalashtirish, narxlarni belgilash, mahsulotni ishlab chiqarishni davom ettirish va kengaytirish, xarajatlarni optimallashtirish, xodimlar mehnatini rag‘batlantirish va menejmentning boshqa sohalariga oid qarorlar qabul qilish uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulot, ish va xizmatlar, jarayonlar, faoliyatlar tannarxini tan olish, tasniflash, taqsimlash va baholash asosida haqiqiy tannarxini aniqlash va tahlil qilish tizimga aytiladi.”

Tannarx hisobi tizimining bosh masalasi mahsulot tannarxini ishonchli, obyektiv aniqlash, menejerlarga qarorlar qabul qilish uchun axborotlar taqdim etish, boshqaruv qarorlarining muqobil variantlarini ishlab chiqish hamda mahsulot birligi tannarxini aniqlashdir.

Tannarx (cost) hisobi menejmentlik buxgalteriya hisobi va moliyaviy buxgalteriya hisobini o‘zaro bog‘lovchi vositalar bo‘lishi va ularning har ikkalasiga ham taalluqli bo‘lishi lozim. Ushbu bog‘liqlikni ko‘rgazmali tarzda quyidagicha ifodalash mumkin (1-rasmga qarang):



1-rasm. Buxgalteriya hisobi tizimi tarkibiy qismlarining o‘zaro bog‘liqligi

Ushbu 1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, ushbu kesishish doirasi menejmentlik va moliyaviy buxgalteriya hisobini bir-biriga bog‘laydi va ularning ajralmas yaxlit bir tizim ekanligidan dalolat beradi.

Tannarx hisobiga doir adabiyotlarda tannarx hisobi tizimining quyidagi to‘rtta bir-biridan farq qiladigan faoliyatlarini qayd qilishgan:

1. Tannarxni o‘lchash
2. Tannarxning yozuvini amalga oshirish
3. Tannarxni tahlil qilish
4. Tannarx hisoboti

Tannarx hisobi tizimi kompleks ishlab turishi va qancha hajmda axborotlar qayta ishlanishi jarayoniga bir qancha omillar ta’sir ko‘rsatib turadi. Tannarx va menejmentlik hisobiga oid darslikda [51, 5-6-p] tannarx hisobining vazifalar (objectives)lariga quyidagilar kiritilgan:

o mahsulotlar va operatsiyalar tannarxiga oidligini belgilash uchun barcha xarajatlarni tahlil etish va tasniflash;

o har bir birlik mahsulot, ish, operatsiyalar, jarayonlar va bo‘limlar va servis xizmatlarining ishlab chiqarish tannarxini belgilash uchun standart tannarxni joriy etish;

• menejmentga xo‘jasizlik (samarasiz faoliyat) va chiqimlarning turli xil ko‘rinishlari, jumladan, materiallar, vaqt, xarajatlar yoki mashina va asbob-uskunalar va dastaklar bilan bog‘liq chiqimlar masshtabi to‘g‘risida ko‘rsatmalar taqdim etish. Qoniqish hosil qilmaydigan natijalarning sabablari tahlili natijalaridan byudjetlarga to‘g‘irlashlar kiritishga ham qaratilishi mumkin;

• moliyaviy yil davomida menejment uchun uyg‘un bo‘lgan vaqt intervalida, masalan, har haftalik, har oylik, har choraklik va boshqa vaqt oralig‘ida nafaqat butun bir yagona biznes birligi bo‘yicha, balkim bo‘limlar yoki mahsulotlar bo‘yicha ham davriy foyda va zararlar schyoti va balans hisobotlari ma’lumotlarini taqdim etish. Foyda va zararlarning asl sabablari detalli ochiqlanishi uchun foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobotda jami summa uni keltirib chiqaruvchi ko‘rsatkichlar bo‘yicha bayon etiladi;

• ishlab chiqarishda iqtisod qilishning manbalarini qo‘llanilayotgan metodlar, asbob-uskunalarning turlari, mahsulotlar va komponovkalarni o‘rganish orqali axtarib topish. Har kunlik, har haftalik, har oylik axborotlar operativ va konstruktiv qarorlar qabul qilish uchun zarur hisoblanadi.

• haqiqiy tannarx to‘g‘risidagi raqamlarni baholangan ko‘rsatkichlar bilan solishtirish hamda menejmentga ular tomonidan kelgusi raqamlarni baholashlarni, kotirovkalar uchun taqdim etish va narxlarni belgilash (price-fixing policy) siyosatini amalga oshirishda yordam berish;

• qayerda standart kostni tayyorlash orqali mahsulot tannarxi qancha bo‘lish kerakligi ko‘rsatilishi lozim, qaysiki bunda haqiqiy tannarx standart kost bilan solishtirilishi uchun qayd qilib boriladi;

• turli davrlar va mahsulot ishlab chiqarishning turli hajmlarida taqqoslanadigan tannarx to‘g‘risidagi axborotlar tayyorlanishi;

• turli ko‘rinishdagi qisqa muddatli qarorlarni, jumladan, maxsus xaridorlar uchun narx kvotalarini belgilash, shuningdek iqtisodiy tushish bo‘lgan davrda ham turli mahsulotlarga imtiyozlar berish bo‘yicha qarorlar qabul qilish;

• zaxiralar va boshqa materillarning uzluksiz hisob tizimi orqali (perpetual inventory) foyda va zararlar to‘g‘risidagi schyot hamda buxgalteriya balansi zaxiralarni muddatdan tashqari inventarizatsiyasini hamda omborxonalarni tekshirish natijalarini olmasdan turib tuzish hamda qisqa vaqt intervalida to‘g‘irlashlarni kiritish imkoniyatlari ta’minlanishi kerak. Bundan tashqari, ushbu tizim orqali ishlab chiqarishni rejalashtirish va ombordagi har xil kamomadlar va yo‘qotishlarga barham berilishi ham ta’min etilishi lozim.

Xulosa va takliflar: Xulosa qiladigan bo‘lsak, tannarx hisobi boshqaruv hisobining asosiy tarkibiy qismi sifatida qaralmog‘i lozim. Tannarx hisobi tayyor mahsulot, ish va xizmatlar turlari, sexlar, bo‘limlar, faoliyatlar hamda boshqa tannarxi obyektlari bo‘yicha operativ rejalar (byudjetlar), standart tannarx hamda xarajatlarni tan olish, tasniflash va taqsimlash asosida haqiqiy tannarxini belgilash, shuningdek, chetlanishlar va rentabellik tahlilini o‘tkazishdan iborat tizim sifatida tavsifi ishlab chiqildi. Sohaga doir ilg‘or adabiyotlarni o‘rganish asosida tannarx hisobining vazifalari belgilab berildi. Ushbu vazifalar korxona va tashkilotlarda tannarx hisobini tashkil etish va tannarx buxgalterlari oldida vazifalarni qo‘yishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Бухгалтерия ҳисоби тўғрисидаги қонун, 7-модда. https://lex.uz/acts/2931253

2. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак., 2017 йил 14 январь.-Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017, -26 б

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 февралда ПҚ-4611 “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори. https://lex.uz/docs/4746047

4. Что такое себестоимость и как ее рассчитать: типы, виды, структура и формирование себестоимости https://kakzarabativat.ru/nachinayushhimsebestoimost-kak-rasschitat/

5. Игнатенки Н.Н., Вылегжанина Е.В. Себестоимость как фактор финансовой результативности предприятия. https://cyberleninka.ru/article/n/sebestoimost-kak-faktor finansovoy-rezultativnosti-predpriyatiya/viewer

6. Лунин П.А. Учет затрат и калькулирование себестоимости научно-технической продукции: На примере отрасли «Наука и научное обслуживание» https://www.dissercat.com/content/uchet-zatrat-i-kalkulirovanie-sebestoimostinauchno-tekhnicheskoi-produktsii-na-primere-otra

UDC 338.43

ANALYSIS OF THE UZBEKISTAN COMMODITY EXCHANGE AND FLOUR TRADE ON IT

G.Turayeva, Independent researcher, Gulistan State University, Gulistan

Annotatsiya. *Mamlakatimizda iqtisodiyotni liberallashtirish va ma’muriy tartibga solishni qisqartirish, yuqori likvidli va monopol mahsulotlarni realizatsiya qilishda bozor mexanizmlarini hamda birja savdolarida shaffoflik darajasini oshirish va sog‘lom raqobat muhitini rivojlantirish*